

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI

Rizaxonova Mo'tabarxon Bahodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bойicha) yo'nalishi, 131-23guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10364648>

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Kalit so'zlar: elektron-biznes, elektron tijorat, veb-iqtisodiyot, electron pul, texnika, texnologiyalar, internet, kiber xavfsizlik.

THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN ECONOMIC DEVELOPMENT

Abstract. Digital economy is a set of digital goods and services produced and sold as a result of economic activities closely related to e-business and e-commerce based on digital technologies. It is sometimes referred to as the internet economy, the new economy, or the web economy.

Key words: e-business, e-commerce, web economy, electronic money, technique, technologies, internet, cyber security.

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

Аннотация. Цифровая экономика – это совокупность видов экономической деятельности, тесно связанных с электронным бизнесом и электронной коммерцией, основанных на цифровых технологиях, а также цифровых товаров и услуг, производимых и продаваемых в результате этой деятельности. Иногда ее называют интернет-экономикой, новой экономикой или веб-экономикой.

Ключевые слова: электронный бизнес, электронная коммерция, веб-экономика, электронные деньги, техника, технологии, Интернет, кибербезопасность.

So'ngi vaqtarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi.

"Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.".

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'limgan vaqtida, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron tulovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'rildi. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobjiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirdor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin. Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Xulosa; Mening fikrimcha agar biror bir davlat rivojlanishni istasa eng avvalo raqamli iqtisodiyotga kata e'tibor qaratishi lozim. So'zimning isboti sifatida hozirda hamma rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyot kata o'rinn tutadi. Masalan: "Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi. Biroq, har bir narsaning yaxshi va yomon taraflari bo'lganidek raqamli iqtisodiyotning ba'zi salbiy tomonlarini bor: kiber xavfsizlik global muammosidir, albatta bu muammolarni ko'rib chiqishimiz iloji boricha bularga yechim ko'rsata bilishimiz kerak deb o'ylayman.

REFERENCES

1. A. O'lmasov, A Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent-2019. 87-b.
2. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2019. – №1 (276). – С. 105–110.
3. Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M.: Infra-M, 2019 yil.
4. Telekommunikatsiya infratuzilmasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. URL: https://mitc.uz/uz/pages/communication_5.
5. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov nutqidan. 2020.
6. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta'limdi innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
7. Umarov Omonilla Saydaminovich, "Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil. 8-b.
8. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2019. – №1 (276). – С. 105–110.
9. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум», (4), 83.
10. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements and Innovations, (5), 36-38.
11. Yuldasheva, G., & Yuldasheva, M. (2022). "Factors of informatization of the process of primary education". Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум», 12(91), 689-692
12. <http://interfinance.tfi.uz>
13. <https://uz.wikipedia.org>